

2019 yil yanvar-aprel oylarida  
**QURILISH ISHLARI**

**Raqamlar:**

Qurilish ishlari hajmi –  
**1035,4 mlrd. so'm**

Yirik qurilish tashkilotlari  
ulushi – **9,4 %**

Kichik tashkilotlar va  
mikrofirmalar  
ulushi – **70,7%**

Norasmiy sektor  
ulushi – **19,9 %**

Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo'nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog'i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-mart oylarida Respublikada jami 1035,4 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,5%ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 97,2 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 9,4%ni, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,5 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmining 70,7 %i yoki 732,5 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,0 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 19,9 % yoki 205,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,9 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Norasmiy sektor



O'tgan yilning shu davriga nisbatan % da

Jami hajmga nisbatan ulushi %da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 70,3 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,7 %punktga ko'paydi.



Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 10,6 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 17,5 % to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 6,3 % punktga kamaydi.

### 2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, mlrd.so'm



*Bino va inshootlar qurilishi*

**728,1  
mlrd.sóm**



*Fuqarolik ob'ektlari qurilishi*


**126,0  
mlrd.sóm**



*Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*

**181,3  
mlrd.sóm**

## Qurilish ishlari, xizmatlar- jami




2019 yil yanvar-aprel holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bino va inshootlar qurilishi ulushi 70,3 %ni, fuqarolik ob'ektlari qurilishi 12,2 %ni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 17,5 %ni tashkil etadi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'rsatkichlar tahlil qilinganda bino va inshootlar qurilishi 4,7%ga ko'paygan, fuqarolik ob'ektlari qurilishi 1,6% ga oshgan, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari esa 6,3 %ga kamaygan.

Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jihattan qayta qurollantirish jami qurilish ishlarining 75% ini tashkil qildi. Kapital, joriy tamirlash va boshqa pudrat ishlari ulushi esa 25%ni tashkil etti.


**2019 yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari tumanlar kesimida**


<b>Tumanlar</b>	<b>mlrd.so'm</b>	<b>o'sish sur'ati</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1035,4</b>	<b>109,5</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>260,3</b>	<b>99,0</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>149,8</b>	<b>109,4</b>
<b>Beruniy</b>	<b>75,8</b>	<b>158,3</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>29,3</b>	<b>93,7</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>21,6</b>	<b>145,3</b>
<b>Qo'ng'irot</b>	<b>99,6</b>	<b>97,5</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>15,9</b>	<b>116,3</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>20,1</b>	<b>204,7</b>
<b>Nukus tumani</b>	<b>55,9</b>	<b>137,7</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>43,1</b>	<b>114,7</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>30,7</b>	<b>81,3</b>
<b>To'rtkul</b>	<b>68,9</b>	<b>100,3</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>53,9</b>	<b>152,8</b>
<b>Chimboy</b>	<b>38,4</b>	<b>93,0</b>
<b>Shumanoy</b>	<b>21,7</b>	<b>115,5</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>50,4</b>	<b>102,0</b>



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1011,7mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,7 %ini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.

Qurilish ishlari turlari b6yicha





Qo'ng'iro't tumaniga qarashli Karakalpakiya pasyolkasi aholi punkti "Obod qishloq" dasturi asosida yangi qiyofa kasb etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 15 tumandan mazkur dasturga kiritilgan 45 qishloqning har birida ushbu posyolkadagi kabi qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun 215,1 milliard so'm mablag' yo'naltirilishi belgilangan.


Dasturning muhim jihati shundaki, nafaqat qishloq obod bo'ldi, balki u yerda yashayotgan yurtdoshlarimiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. "Qoraqalpog'iston" posyolka fuqarolar yig'inida ham tikuv sexi ishga tushirilib, 80 nafar xotin-qiz doimiy daromad manbai bilan ta'minlandi. O'tgan asrning 90-yillaridan buyon qarovsiz yotgan klub qayta ta'mirlanib, zamonaviy "Madaniyat saroyi"ga aylantirildi. Bu yerda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan dasturga asosan turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, teatr tomoshalari, uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

"Obod qishloq" dasturi ijrosi doirasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Mo'ynoq tumanida uzunligi 2,3 km, eni 45 metrga teng uchish yo'lagi rekonstruktsiya ishlari va zamonaviy aeroport terminali qurilishi ketmoqda.


Hozirda Mo'ynoq tumanida ko'p qavatli uylar qurilishi boshlandi



Mo'ynoq tumanida kema ko'rinishidagi zamonaviy bolalar dam olish oromgohi qurilishi boshlandi




“Mo'ynoq akva sanoat” unitar korxonasi tomonidan smeta bahosi 26 mlrd. 200 mln.so'm bo'lgan ushbu zavod yiliga 9 mln. dona baliq konserva mahsulotlarini ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi va 62 odam doimiy ish bilan band bo'ladi.



## Tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %dagi ulushi)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF №4201-son "Obod mahalla" dasturi to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, mahallalarning me'moriy qiyofasini tubdan yangilash, hududlarni kompleks rivojlantirish, yo'l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo etish, shu asosda aholining turmush darajasini oshirish ishlari har bitta tuman bo'yicha mahallalarda ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari bajarilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika  
boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova  
(0361) 222-75-91